

1. (B 4 ball) Aylana markazidan to'g'ri chiziqqa bo'lgan masofa d , aylana radiusi R bo'lsin. Aylana va to'g'ri chiziqning o'zaro joylashuvining har biri uchun moslikni toping.

I. To'g'ri chiziq va aylana bitta umumiy nuqtaga ega bo'ladi	A. $d > R$
II. To'g'ri chiziq va aylana ikkita umumiy nuqtaga ega bo'ladi	B. $d < R$
III. To'g'ri chiziq va aylana umumiy nuqtaga ega bo'lmaydi	C. $d = R$

A) I-C, II-B, III-A B) I-B, II-A, III-C C) I-C, II-A, III-B D) I-A, II-C, III-B

2. (Q 5,2 ball) To'g'ri burchakli ACB ($\angle C = 90^\circ$) uchburchakda $AB = 8$ cm, $\angle CAB = 30^\circ$. Markazi A nuqtada bo'lgan aylananing radiusi qanday bo'lganda, BC to'g'ri chiziqqa urinadi?

A) 8 cm B) $4\sqrt{3}$ cm C) $4\sqrt{2}$ cm D) 4 cm


3. (Q 5,2 ball) Ikki aylananing o'zaro joylashuv shartlariga ko'ra, quyidagi tasdiqlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang. Bu yerda, R_1 va R_2 aylana radiuslari, d aylana markazlari orasidagi masofa va $R_2 > R_1$.

No	Tasdiqlar	to'g'ri	noto'g'ri
1	$d = 9$ cm, $R_2 = 5$ cm, $R_1 = 3$ cm bo'lsa, aylanalar tashqi tomondan urinadi		
2	$d = 2$ cm, $R_2 = 5$ cm, $R_1 = 2$ cm bo'lsa, aylanalar urinadi		
3	$d = 7$ cm, $R_2 = 6$ cm, $R_1 = 4$ cm bo'lsa, aylanalar ikkita nuqtada kesishadi		

A) to'g'ri, noto'g'ri, to'g'ri; B) to'g'ri, to'g'ri, to'g'ri;
C) noto'g'ri, noto'g'ri, to'g'ri; D) to'g'ri, noto'g'ri, noto'g'ri;


4. (Q 5,2 ball) Rasmda berilgan ma'lumotlardan foydalanib, α ning qiymatini toping.

A) 40°
B) 80°
C) 20°
D) burchak qiymatlari bunday bo'lishi mumkin emas




5. (Q 5,2 ball) Rasmda berilgan ma'lumotlardan foydalanib, α burchakning qiymatini toping.

- A) 55°
B) 65°
C) 50°
D) 25°



6. (M 6 ball) F markazli aylana bilan O markazli aylana ichki tomondan B nuqtada urinadi (rasmga qarang). OA va OC katta aylananing radiuslari bo'lib, kichik aylanaga mos ravishda D va E nuqtalarda urinadi. Agar AB yoy uzunligi 50° ga teng bo'lsa, DBE burchak qiymatini toping.

- A) 30°
B) 35°
C) 40°
D) 50°



7. (B 4 ball) To'g'ri to'rtburchakning yuzi 540 cm^2 , ikki tomonining nisbati 3:5 kabi. Shu to'g'ri to'rtburchakning tomonlari ayirmasini toping

- A) 12 cm B) 6 cm C) 36 cm D) 4 cm

8. (Q 5,2 ball) Rombning diagonallari 12 cm va 16 cm ga teng. Shu rombning perimetrini toping.

- A) 40 cm B) 48 cm C) 60 cm D) 80 cm